



ISSN 2181-9556

Doi Journal 10.26739/2181-9556

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

3-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-3



ТОШКЕНТ-2024

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№SI-3 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-SI-3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Толипов Файзулла Саидович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қозоқов Собиржон Зокиржонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Sodiqova Shohida RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING KEKSALAR UCHUN IMKONIYATLARI VA XAVFLARI.....	9
2. Karimov Bobir FASILITATIV LIDERLIK – BOSHQARUVDA DEMOKRATIK JARAYONLARNI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA.....	18
3. Алексеева Виктория ОСОБЕННОСТИ ВОСПРИЯТИЯ МОЛОДЕЖЬЮ СОЦИАЛЬНЫХ ЛИФТОВ В ПРОЦЕССЕ СОЦИАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ.....	26
4. Якубов Ильдар СОВРЕМЕННЫЕ КОНЦЕПЦИИ УПРАВЛЕНИЯ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ.....	38
5. Ахмедов Нодир ИНФОРМАЦИОННАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ ФЕЙКОВЫХ НОВОСТЕЙ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ БОРЬБЫ.....	45
6. Abduraxmonova Manzuraxon, Sultonova Nazokatxon KVADROBERLAR SUBMADANIYATI – DEVIANT XULQ-ATVOR SIFATIDA.....	53
7. Alikariyeva A’loxon TA’LIM SIFATI MENEJMENTI TIZIMINI JORIY ETISH MUAMMOLARI.....	59
8. Berdimuratova Alima, Kamalova Khatira, Baymurzaev Azamat GLOBALLASIW DÁWIRINDE QARAQALPAQSTANLÍ JASLARDIŃ QÁDIRIYATLARĜA BAĖDARLANGANLÍĜI MÁSELELERI.....	67
9. Mirzaxmedov Xurshid SOTSIAL TRANSFORMATSIYA: YOSHLAR.....	81
10. Zaretdinova Nesibeli, Hakimniyazova Mavluda MEHNAT MIGRATSIYASINING DEMOGRAFIYAGA TA’SIRI.....	89
11. Mo‘minov Zokirjon IJTIMOIY MOBILLIK TURLARI: VERTIKAL VA GORIZONTAL IJTIMOiy MOBILLIK HAQIDA TUSHUNCHA.....	96
12. Узакова Зарина ДОШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК ЭТАП ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНОГО КАПИТАЛА ДЕТЕЙ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ.....	103
13. Alimuxamedova Nodira «MILLAT» HODISASINI TUSHUNISHDA ILMIIY-NAZARIY YONDASHUVLAR.....	110
14. Radjabova Aziza GLOBAL GEOSIYOSIY VA GEOIQTISODIY O‘ZGARISHLAR VA ULARNING MINTAQAVIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH, NIZOLARNING OLDINI OLISHGA TA’SIRI.....	117

15. Dulanbayeva Oygul ZAMONAVIY JAMIYAT SHAROITIDA DIN VA IQTISODIY INSTITUTLARNING O'ZARO ALOQADORLIGI.....	123
16. Bekmurodov Xusan “MAHALLA YETTILIGI” – JAMIYATDA IJTIMOIIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING YANGI MEXANIZMI SIFATIDA (SOTSIOLOGIK TAHLIL).....	129
17. Samadov Shohzod FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING IJTIMOIIY TRANSFORMATSIYASIGA DOIR QARASHLAR (SOTSIOLOGIK TAHLIL ASOSIDA).....	135
18. Мирзаева Шахноза НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН: ГЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО В СФЕРЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА.....	142
19. Mirjavxarova Farida TRANSFORMATSION JAMIYATDA HARBIYLIK KASBI: ORIENTATSIYA VA DEFORMATSIYA (KASBIY BUZILISH) SABABLARI, OMILLARI VA UNING NAMOYON BO'LISHI.....	148
20. Xaytboev Boburjon INSON, FAN VA TEXNIKA TUSHUNCHALARI – FALSAFIY TADQIQOD OBYEKTI SIFATIDA.....	155
21. Xo'jamqulov Adham YANGI O'ZBEKISTONNING YOSHLARGA DOIR SIYOSATI: YOSHLAR IJTIMOIIY KAPITALINI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA.....	162
22. Qobilov Uchqun DAVLAT BOSHQARUVINI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA DAVLAT XIZMATCHILARINING KASBIY KOMILLIGINI SHAKLLANTIRISH.....	169
23. A'zamova Kumush INSON QADRINI YUKSALTIRISHDA IJTIMOIIY DAVLAT MEXANIZMLARINING REGULYATIV FUNKSIYASINI RIVOJLANTIRISH.....	176
24. Tajieva Dilnoz YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA XOTIN-QIZLARNING O'RNI VA MAVQEI: SOTSIOLOGIK TAHLIL.....	183
25. Xaydarova Javohira RAHBAR AYOLLARNING BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI.....	189
26. Каюмова Райхона МАХАЛЛЯ В УЗБЕКИСТАНА: ИСТОРИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ МЕСТНОГО САМОУПРАВЛЕНИЯ И СОВРЕМЕННОЙ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ.....	198

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES


Alimuxamedova Nodira,

Falsafa doktori (PhD)

«TIQXMMI» MTU

email:alimukhamedova.n@gmail.com

«MILLAT» HODISASINI TUSHUNISHDA ILMIIY-NAZARIY YONDASHUVLAR

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14564788>

ANNOTATSIYA

Maqolada integratsiya jarayonlari kontekstidagi etnomilliy qadriyatlar va identifikatsiya to'qnashuvlari, millatlararo munosabatlarning keskinlashib borishi natijasida etnik faktorni faollashuvi, hamda ushbu hodisaning mazmun-mohiyatini anglash maqsadida yangi ilmiy-nazariy yondashuvlar shakllanishi haqida fikr yuritilgan. Urf-odat va an'analarni qayta tiklashga urinishlar, «xalq ruhi»ni izlashdan tortib milliy davlatchilikni tiklash istagining asosiy sababi globallashuv jarayonlari bo'lib, avj olib borayotgan integratsiya, madaniyatlar unifikatsiyasi va qadriyatlar diffuziyasi etnomilliy konsepsiyalarning ilmiy paradigma sifatida ijtimoiy gumanitar fanlarda muhim ahamiyat kasb etishi bilan bog'liq. Bugungi kunda doimiy, mutlaqo «izchil» xizmat qiladigan klassik nazariya yaratilmaganligi, «millat» hodisasining mohiyati, milliy identifikatsiya jarayonlarini kuchaytirish mexanizmlari masalalarini o'rganishda ilmiy metodlarning qo'llanishi har doim ham yetarlicha natijalar bermasligi ham yangi paradigmal yondashuvlarni taqozo etadi.

Kalit so'zlar: globallashuv, etnos, millat, milliy o'zlikni anglash, paradigma, etnomilliy konsepsiyalar, primordializm, konstruktivizm, instrumentalizm.

Алимухамедова Нодира,

Доктор философии (PhD)

«ТИИИМСХ» НИУ

email:alimukhamedova.n@gmail.com

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ПОДХОДЫ К ПОНИМАНИЮ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ПОНИМАНИЮ ФЕНОМЕНА «НАЦИЯ»

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются конфликты идентичности и этнонациональных ценностей в контексте интеграционных процессов, активизация этнического фактора в результате эскалации межэтнических отношений, а также формирование новых научно-теоретических подходов к пониманию сущности этого явления. Попытки возродить традиции и обычаи, от поиска «народного духа» до стремления восстановить национальную государственность, основной причиной которых являются процессы глобализации, растущая интеграция, унификация культур и диффузия ценностей, связаны с важностью этнокультурных концепций как научной парадигмы в социально-гуманитарных науках. В настоящее время не создана

классическая теория, служащая перманентно, абсолютно «последовательно», сущности феномена «нации», использования научных методов в изучении механизмов усиления процессов национальной идентификации, она не всегда дает достаточные результаты, также требует новых парадигмальных подходов.

Ключевые слова: глобализация, этнос, нация, национальная идентичность, парадигма, этнонациональные концепции, примордиализм, конструктивизм, инструментализм.

Alimukhammedova Nodira,
Doctor of Philosophy (PhD)
«ТИАМЕ» NRU
email:alimukhamedova.n@gmail.com

SCIENTIFIC-THEORETICAL APPROACHES TO UNDERSTANDING THE PHENOMENON OF «NATION»

ABSTRACT

The article examines conflicts of identity and ethnonational values in the context of integration processes, the activation of the ethnic factor as a result of the escalation of interethnic relations, as well as the formation of new scientific and theoretical approaches to understanding the essence of this phenomenon. Attempts to restore customs and traditions, from the search for the «spirit of the people», the main reason for the desire to restore national statehood is the processes of globalization, and the growing integration, unification of cultures and diffusion of values are associated with the importance of ethno-national concepts as a scientific paradigm in social and humanitarian sciences. To date, no classical theory has been created that would serve as a permanent, absolutely «consistent» one. The use of scientific methods in studying the essence of the «nation» phenomenon and the mechanisms of strengthening national identification processes does not always yield sufficient results and requires new paradigmatic approaches.

Key words: globalization, ethnicity, nation, national identity, paradigm, ethnonational concepts, primordialism, constructivism, instrumentalism.

KIRISH

Globalashuv tufayli jadallashib borayotgan integrasiya jarayonlari natijasida an'anaviy madaniy, xududiy va milliy chegaralar asta-sekinlik bilan yemirilib bormoqda. Etnomilliy qadriyatlar va identifikatsiya to'qnashuvlari esa asrimizning asosiy tendensiyasi bo'lib kelmoqda. O'tgan asrning ikkinchi yarmidan xalqlarning o'zligini va etnomadaniyatini saqlab qolishga intilishlari ortishi, millatlararo munosabatlarning keskinlashib borishi natijasida barcha qit'alarda «etnik uyg'onish», «etnik portlash» yoki «etnik paradoks» – etnik faktorni faollashuvi kuzatildi va ushbu hodisaning mazmun-mohiyatini anglash maqsadida yangi ilmiy-nazariy yondashuvlar shakllanishiga olib keldi. «Etnik paradoks» bu bir vaqtning o'zida namoyon bo'lgan ikkita qarama-qarshi tendensiya: bir tomondan, integratsiya jarayonlari kuchayishi, dunyo bo'ylab millionlab odamlar erkin harakati – mobillik, migratsiya jarayonlarining ortib borishi kuzatilsa, boshqa tomondan, xalqlarning o'zligini anglash, millatlararo munosabatlar inqirozining kuchayishi kuzatildi. Bundan tashqari, G'arbning rivojlangan davlatlarida ham millatlararo to'qnashuvlar mavjud ekanligi, sobiq Sovet imperiyasi yoki Yugoslaviya hududidagi millatlararo munosabatlar muammosini sotsialistik tizimni qulashi va jamiyat hayotining barcha soxalaridagi chuqur inqiroz bilan bog'lab tushuntirishga intilishlarni yo'qqa chiqardi.

O'zbekiston muqtaqillik yillarida ijtimoiy-gumanitar fanlar oldidagi dolzarb vazifalardan biri – bu jamiyatning transformasiyalashuvida kechayotgan iclohotlarning milliy qadriyatlar qayta o'zgarishiga ta'ciri, o'zlikni anglash macalalarida xalqning millat cifatida yangidan namoyon bo'lish jarayonlaridagi ilmiy nazariy aocclarni tadqiq etish edi. Yangi O'zbekistonda milliy rivojlanishdan milliy taraqqiyot cari yuz tutayotgan jamiyatimizning yangilanishida milliy identifikasiya jarayonini optimallashtirish yo'llari va imkoniyatlarini aniqlash muhimdir. «Xususan, milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini

kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim»ligi [1] ushbu masalaning ahamiyatini belgilaydi.

METODOLOGIYA

Globalashuv zamonaviy ko'rinishda integrasiyaning ko'p qatlamli va serqirra tizimi sifatida namoyon bo'lmoqda. Shuningdek, milliy integrasiyalashuv munosabatlari ham avj olib borar ekan, kelajakda millatlar bir-biriga singib, assimilyatsiyalashib ketishi haqidagi bashoratlarga qaramay, milliy o'zlikni anglash yuksalib borishi hamda millatni asrab qolishga intilishlarning kuchayishi, mavjud etnomilliy konsepsiyalarning mohiyati, shakllanishi va metodologik yo'nalganligi borasidagi tadqiqotlarning dolzarbligini belgilaydi. Mavjud etnomilliy konsepsiyalarning tarixiy ildizlarini aniqlash, asosiy metodologik va ilmiy-nazariy yondashuvlarni tasniflash, ilmiy yondashuvlarini qiyosiy tahlil qilib, zamonaviy etnomilliy konsepsiyalar shakllanishidagi shart-sharoitlar, geostrategik maqsad va manfaatlarning o'rni va ularning nazariy metodologik yo'nalganligining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishda obyektivlik, umumiy o'zaro aloqadorlik, vorisiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil, tarixiylik, diskursiv tahlil, sinergetika usullaridan foydalanilgan.

ASOSIY QISM

O'tgan asrning 60-70-yillarida Belgiyada flamand, Buyuk Britaniyada shotland va uels, Kanadada frank-kanada millatchiligining uyg'onishi jamiyatshunos olimlarning hayratiga sabab bo'lgan va ular tomonidan «etnik paradoks», deb nomlangan bo'lsa, ba'zi tadqiqotchilar bugungi kundagi etnik millatchilikning avj olishini sunami kabi tabiiy ofatlar bilan taqqoslashmoqda [2, – S.3]. Qanchalik paradoksal bo'lmasin, o'zini turli xil shakllarda namoyon qilgan «etnik portlash» – azaliy urf-odat va an'analarni qayta tiklashga urinishlar, «xalq ruhi»ni izlashdan tortib milliy davlatchilikni tiklash istagining asosiy sababi globalashuv jarayonlari bo'lib, avj olib borayotgan integratsiya, madaniyatlar unifikatsiyasi va qadriyatlar diffuziyasini xalqlar o'z madaniyati va millatining borlig'iga xavf sifatida qabul qila boshladilar. Professor S.Otamuratovning ta'kidlashicha «Bugun globalashuvning avj olishi sharoitida millatni asrash global muammoga aylanmoqda.

Chunki, u jarayon «kichik» va kam taraqqiy etgan mamlakatlardagi xalq (millat)larni yirik va taraqqiy etgan mamlakatlar hamda ularda yashayotgan xalq (millat)larga qo'shib ketish xavfini kengaytirmoqda. Bunday sharoitda o'z davlatiga ega bo'lish mamlakatlarning ana shu xavfdan himoyalinishida muhim ahamiyatga ega bo'ladi» [3, – S.77]. Etnomilliy konsepsiyalarning ilmiy paradigma sifatida ijtimoiy gumanitar fanlarda muhim ahamiyat kasb etishi ham aynan shu hodisalar bilan bog'liq. Barcha uchun muqobil konsepsiya yo'qligining tabiiyligini J.Xoll quyidagi fikrida ta'kidlaydi: «Umumiy, universal nazariya bo'lishi ham mumkin emas. Chunki, tarixiy o'tmishimiz turlicha, shunday ekan, konsepsiyalarimiz ham bir-biridan farq qilishi kerak» [4, – S.5].

Paradigma (yunon. paradeigma – misol, namuna) bir vaqtning o'zida butun ilmiy jamoatchilik tomonidan tan olingan, yangi ilmiy tadqiqotlarning asosi va modeli bo'lib xizmat qiluvchi ilmiy yutuqlar majmuidir. Paradigma «ilmiy jamoa tomonidan qabul qilingan g'oyaviy-me'yoriy nazariy an'analar tizimi («tadqiqot normalari va ideallari», «dunyoning ilmiy manzarasi», «texnik va uslubiy vositalar» va boshqa vositalar) jamoaviy va «intizomiy matritsa» (T.Kun), deb nomlangan ilmiy an'ana mavjudligini ta'minlash, uning o'zgarishi o'rganilayotgan obyektning nazariy tushunchasini sifat jihatidan o'zgartiradi» [5, – S.11].

Falsafadagi paradigmalar dikurs falsafaning bosh muammosiga borib taqaladi. Falsafaning ushbu muammosini klassik marksistik talqin qilish faqat sobiq Sovet falsafasining mafkuraviy munosabatlari bilan bog'liq holda eskirgan bo'lishi mumkin. Ammo, barcha davrlarda falsafaning asosiy masalasini hal qilishning ko'plab usullari shakllangan va falsafiy diskursning universal mavzusi sifatida ahamiyatini yo'qotmagan. Shu nuqtai nazardan, tadqiqotlar markazida millat borlig'i masalasi ko'ndalang qo'yilgan: millat obyektiv voqelikmi yoki subyektiv borliqmi, ushbu dixotomiya azaliy falsafiy muammolar sirasidandir. Primordialistik va postmodernistik yo'nalishlari millat hodisasini tadqiq etishda obyektivistik va subyektivistik paradigmalar to'qnashuvi tarzida namoyon bo'lmoqda.

XVIII-XIX asrlarda «millat» ko'p ehtiroslar qo'zg'atuvchisi bo'lishiga qaramay, bu ijtimoiy hodisani o'rganish borasida alohida fundamental tadqiqotlar olib borilmagan. B.Anderson «Agar bizning fikrimizcha, so'nggi ikki asrdagi jahon siyosatida millatchilik ulkan rol o'ynagan bo'lsa, unda

nega ushbu davrning serqirra mutafakkirlari – Marks, Nisshe, Veber, Dyurkgeym, Benyamin, Freyd, Levi-Stross, Keyns, Gramshi, Fuko – u haqda juda oz fikr bildirdilar?», kabi o‘z savollariga «Yevropadagi konservativ dunyoning uzoq yuz yillik davrida (1815-1914) millatchilik, faqat ayrim holatlar munosabati bilan bir necha kishilarnigina nazariga tushgan, ammo bu holatlar juda ibratli bo‘lgan», degan fikrini javob tariqasida keltirgan. «Millat» hodisasi haqidagi qarashlarning shakllanishiga nafaqat falsafiy va siyosiy qarashlar, balki XIX asr oxiriga kelib yetarli darajada bilim va materiallar bazasiga ega bo‘lgan etnografiya, etnologiya, antropologiya hamda evolyusiya nazariyasi ta’siri ham katta bo‘lgan.

O‘tgan asrning boshlarida ushbu fanlar doirasida ikki nazariy yo‘nalish shakllangan: «evolyusionizm» va «diffuzionizm». Ch.Darvinning 1859-yilda chop etilgan «Turlarning kelib chiqishi» nomli asari evolyusionizm yo‘nalishidagi etnologik tadqiqotlarning nazariy asosiga aylangan edi. Teodor Vays «Yovvoyi xalqlar antropologiyasi» (1859) asarida yevropalik bo‘lmagan xalqlarni o‘rganish asosida to‘plangan etnografik materiallari asosida insoniyatni birligi, irqnlarni tengligi haqidagi g‘oyalari, Eduard Taylor har bir madaniyat taraqqiyotning umumbashariy qonuni asosida uzluksiz rivojlanib bir xil bosqichlarni bosib, johillikdan ma’rifatga qarab chiziqli harakatlanishini «Ibtidoiy madaniyat» (1871) asarida yoritgan, Adolf Bastian «Etnologiyaning umumiy asoslari» (1871) asarida insoniyatning birligi, turli xalqlarning aqliy tafakkuri tengligini ta’kidlagan holda, xalqlar va madaniyatlardagi farqni atrof muhitdagi farqlar bilan tushuntirgan.

Bu asarlar ushbu davrda yaratilgan asarlarning bir qismi bo‘lib, tadqiqotchilar insoniyat tarixi barcha jamiyatlar uchun xos bo‘lgan umumbashariy taraqqiyot bosqichlari mavjud bo‘lgan, umumiy qonuniyatlar asosidagi oddiydan murakkabga to‘g‘ri chiziqli harakatlanuvchi taraqqiyot sifatida tushuntirilib, etnogenez «yagona, birlamchi madaniyat» asosidagi xalqlarning madaniyatining rivoji tariqasida tushuntirilgan. Evolyusionistlar nuqtai nazarida madaniyatlardagi o‘xshashliklar sababi turli madaniyatlar «yagona, birlamchi madaniyat»dan tarqalganligida, xalqlarning o‘zaro ta’siri, madaniyatlararo munosabatlarning esa ahamiyati yo‘q.

Insoniyat taraqqiyoti aslida to‘g‘ri chiziqli emasligi, ilk davrlardan boshlangan xalqlarning migratsiya jarayonlarida etnoslarning madaniyati bir-biri bilan qorishib, bir-biriga singib assimilyatsiyalashib borishi – diffuziyasi haqidagi g‘oyalari diffuzionizm yo‘nalishining shakllanishiga olib keldi. Fridrix Ratsel «Antropogeografiya» (1909) asari bilan diffuzionizm an’analarini boshlab bergan bo‘lib, tadqiqotchilar madaniyatlar rivojini migratsiya jarayonlari, xalqlar orasidagi savdoni rivojlanishi, to‘qnashuvlar natijasidagi madaniyatlarning o‘zaro ta’siri, bir-biriga singishi, o‘zaro o‘zlashtirishlar, qorishib ketishi natijasi va bunda ma’lum bir yoki bir necha geografik hududlarni madaniyatlar tarqalishining boshlang‘ich nuqtasi sifatida talqin qila boshladilar. Leo Frobenius «Afrika madaniyatlarining kelib chiqishi» (1898), Fris Grebner «Etnologiya metodi» (1911) asarlarida madaniyat xalqlar ko‘chishi natijasida va xalqlar ko‘chmagan holda madaniyatini tarqalishi mumkinligini, «madaniy aylana» haqidagi, madaniyatni tabiat mahsuli ekanligi haqidagi fikrlarida diffuzionizmning asosiy kamchiligi – madaniyatni inson va jamiyatdan uzib qo‘yganligi ko‘zga tashlanadi.

Zamonaviy ijtimoiy-gumanitar fanlarda «millat» hodisasini o‘rganishga davriy yondashuv asosida quyidagi davrlarga bo‘lish mumkin:

Birinchi davr – XX asrning 30-yillarida «millat» hodisasi va «millatchilik»ni o‘rganish borasidagi tadqiqotlar orta boshladi. Bu xolat Yevropadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, imperiyalarning parchalanishi va yangi mustaqil milliy davlatlarning paydo bo‘lishi bilan belgilanar edi. Birinchi jahon urushi olimlar uchun burilish davri bo‘ldi, Yevropaning siyosiy xaritasi keskin o‘zgarganligi, voqealar ko‘lami va dunyoning yangi tartibini o‘rnatilishidan hayratda qolgan tadqiqotchilar tarixiy haqiqatlarni anglash uchun yangi yondashuvlarni ishlab chiqishlari kerak edi. Aynan shu davrda «millat» haqidagi nazariyalarni tasniflashga ilk urinishlar amalga oshirilgan edi.

Ikkinchi davr – o‘tgan asrning 60-yillaridan «millat» fenomeniga qiziqishlar ikkinchi Jahon urushidan so‘ng mustamlaka mamlakatlarida avj olgan milliy ozodlik kurashlari natijasida, milliy mustaqillik hamda millat sifatida o‘z taqdirini o‘zi belgilash xuquqini qo‘lga kiritib, uchinchi dunyo mamlakatlari, deb atala boshlagan mustaqil davlatlarni dunyo sahnasiga chiqishi, oxir oqibat mustamlaka tizimining barbod bo‘lishi bilan belgilanadi.

Uchinchi davr – oʻtgan yuz yillikning 80-90-yillaridan bugunga qadar tadqiqotchilar dunyodagi ulkan oʻzgarishlar – sotsialistik tizimning barbod boʻlishi va buning natijasida vujudga kelgan yangi milliy davlatlar, millatlararo munosabatlar keskinlashib qonli toʻqnashuvlarga olib kelishi, siyosiy va iqtisodiy globallashtirishning jadallashuvi oqibatida davlatlarga siyosiy taʼsir oʻtkazishning kuchayishi, iqtisodiy suverenitetning yemirilishi, ommaviy kommunikatsiyalar rivoji, «madaniy gibrirlanish» holatlarini anglashga, ilmiy tahlil qilishga intildilar.

Tadqiqotchilar diqqat markazida bir tomondan «davlat qurilishi», milliy mustaqillikka erishish, milliy mafkura asosida millatni jipslashuvini taʼminlash masalalari turgan boʻlsa, boshqa tomondan ular «Millatchilikni sayyohlar uchun «ulkan tarix muzeyi»ga yuborsak boʻladimi?» [6, – S.389] kabi savollarni oʻrtaga tashladilar. Chunki «millat» va «milliy davlatlar»ning muqarrar soʻnishi, oʻrniga «global insoniyat», «kosmopolitik madaniyat» yoki «global madaniyat» shakllanishi, ommaviy kommunikatsiyalar va yuqori texnologiyalar «global isteʼmolchi madaniyati»ni shakllantirib, milliy madaniyatlarni siqib chiqarishi haqida bashoratlar orta boshlagan edi. Ilmiy qarashlardagi bu qarama-qarshiliklar muammoni naqadar murakkabligini bildiradi. Va nihoyat oxirgi oʻn yilliklarda milliy, etnik masalalarni yanada keskinlashuvi va dolzarblashuvi, migrantlar oqimi butun Yevropani yutib borayotganligi «millat» va «milliy identiklik» muammolarini tadqiqotchilarning kun tartibiga olib chiqdi.

Oʻtgan asrning 30-yillaridan boshlab millat va millatchilik masalalari boʻyicha tadqiqotlar asosan tarix fani doirasida olib borilgan boʻlib, birinchilardan boʻlib millatni «siyosiy» va «madaniy» tasnifini bergan nemis tarixchisi Fridrix Meyneke boʻlib, bu gʻoyalarning keyingi rivoji amerikalik faylasuf va tarixchilar Xans Kon va millatchilik mafkurasini din bilan bogʻlagan Karlton Xeys nomlari bilan bogʻliq. Ular dunyoning turli burchaklaridagi millatchilik koʻrinishlarini oʻrganib va olingan natijalarni tasniflashga harakat qilganlar. X.Kon tomonidan taklif etilgan millat va millatchilikning nazariyalarining «etnik» va «fuqarolik» tasnifi bugungi kunda ham tadqiqotchilar tomonidan qoʻllanilmoqda [7, – S.27].

X.Kon fikricha, XVII asrda Angliyada vujudga kelgan «millat» gʻoyasi va «millatchilik» mafkurasi keyinchalik Buyuk Fransuz Burjua inqilobi tomonidan oʻzlashtirilib, butun Yevropaga soʻngra esa butun dunyoga tarqatilgan. Har bir insonga xos boʻlgan oilasiga, vatanga muhabbat – vatanparvarlik hissiga milliy gʻoya oʻzgacha, chuqurroq mazmun-mohiyat baxsh etib va «millat»ga bogʻliqlikni yanada kuchaytiradi, bunda esa umumtaʼlim, matbuot, iqtisodiy oʻzaro bogʻliqlik va shu bilan birga, ijtimoiy-siyosiy institutlarning taʼsiri kattadir, sifatijihatdan oʻzga boʻlgan ushbu hissiyot ommaning integratsiyalashuviga va kollektiv identiklikni shakllanishiga olib keladi, deb hisoblagan tarixchi. Olim uchun qadimdan mavjud boʻlgan etnik xilma-xillik, millat qurilishida «etnografik material» sifatida ahamiyatga ega. Faqat milliy ongning uygʻonishi tufayli «etnografik material» tarixning faol kuchiga aylanadi.

Demak, X.Kon uchun millat va millatchilik «modernizm» davrining mahsuli boʻlib, «millat qurilishi»da qon-qardoshlikni emas, millatchilik mafkurasi ahamiyatli. K.Xeys oʻzining 1926-yilda chop etilgan «Millatchilik haqida esselar» nomli asarida millat bilan milliylikni farqlar ekan, milliy davlat milliylik asosida mavjud boʻladi, deydi. Tarixchi millatni bir davlatda yashovchi, turli etnik guruhlarga tegishli insonlar uyushmasi sifatida tushungan boʻlsa, milliylik olim uchun yagona til va madaniyat asosidagi etnik birlikdir. K.Xeys ham milliy mafkuraning ahamiyatini eʼtirof etar ekan, mafkurani intellektual elita tomonidan yaratilishi va uni ommaviy axborot vositalari, umumtaʼlim tizimi orqali targʻib qilib, odamlarning ongiga singdirish orqali mustahkamlash mumkinligini taʼkidlagan.

XX asrning 60-yillarida «millat» fenomeniga qiziqishlar kuchayib, tadqiqotlar orta boshladi. Shu davrda yaratilgan original nazariya millatning kommunikatsiya nazariyasi edi. «Millatchilik va ijtimoiy kommunikatsiya» (1953) asarining muallifi Karl Doych taʼlimoti oʻtgan asrning oʻrtalaridagi eng ilgʻor fan yoʻnalishlaridan boʻlmish kibernetika va oʻz davrining sotsiologik tadqiqotlari taʼsirida shakllangan boʻlib, mavjud konsepsiyalarning asosiy kamchiligini miqdoriy oʻlchovlarning va ular asosida bashoratga urinish yoʻqligi bilan tushuntirdi. K.Doych taʼkidlaydiki, axborot madaniyatning hosilasi sifatida oʻzida bilimlar, qadriyatlar, anʼanalar, yangiliklar va hattoki gʻiybatni ham birlashtiradi. Maʼlum bir jamoaning ichidagi axborot almashinuvi tezkor amalga oshadi, jamoadan

tashqarida esa bu jarayon qiyinlashadi va aynan axborot almashish, muloqotlar – kommunikatsiya intensiv bo‘lgan jamoalarda assimilyatsiya kuchayadi, ushbu hududdagi standart tildan barcha foydalanadi va bu jamoa o‘zlarini boshqalardan ajratib, boshqalardan farqlanishini anglay boshlaydilar. Insonlar axborotni yagona til, yagona ramzlar vositasida qabul qilib, qayta ishlash, saqlash va uzatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu tariqa, axborot almashinuvi asosida milliy madaniyat shakllanadi. Demak, K.Doych millatni obyektiv belgi, xususiyatlariga emas, hatto milliy o‘zlikni anglashga ham emas, balki obyektiv jarayonlarga – insonlar orasidagi aloqa, muloqot, kommunikatsiyaning samaradorligi, ya’ni axborot tarqalishining tezligi, yetarliligiga e’tibor qaratadi. Olim fikricha, millatlar bir-biridan «kommunikatsiya to‘sig‘i, axborot oqimidagi bo‘shliq» [8] bilan ajralib turadilar.

Britaniyalik tarixchi Eli Keduri «Millatchilik» (1960) nomli asarida millat va millatchilik muammolarini ijtimoiy va siyosat falsafasi tahlil qilishi zarurligiga e’tibor qaratadi. Olimni qiziqtirgan eng muhim muammo, nima uchun zamonaviy davrda inson o‘zini ma’lum bir millatga mansubligini his etishi zarur? Milliy identiklikni inert va o‘zgaruvchan hodisa, tilni esa millat shakllanishidagi ahamiyatini shubhali, deb hisoblaydi. Misol tariqasida, Yevropada chegara oldi hududlardagi aholini osonlik bilan bayroq, ya’ni milliy davlatni, milliy identiklikni shart-sharoitlar, manfaatlar va afzalliklardan kelib chiqqan holda o‘zgartirishini aytib o‘tadi.

Buyuk fransuz inqilobi bilan hamnafaslikda vujudga kelgan millat g‘oyasi shakllanishida ziyoli va siyosatchilarning o‘rniga e’tiborini qaratar ekan, ushbu g‘oyalarni jamiyatdagi ma’lum guruhlar manfaatlariga yo‘naltirilganligini tahlil qiladi. Lekin, nima uchun millatchilik mafkurasi osonlik bilan butun dunyoga tarqaldi, degan savolga javoban, jamiyat transformatsiyasi va insonlardagi yangi mansublik hissiga bo‘lgan ehtiyojni, ya’ni obyektiv jarayonlar va insonlardagi subyektiv hissiy ehtiyojlarni sabab sifatida keltirdi. Demak, E.Keduri etniklikning «substansional» asos sifatidagi rolini faqat millatchilik mafkurasi, millat g‘oyasi asosida erishilgan «etnik uyg‘onish» bilan chegaralab, etnoslarni millat qurilishida «etnik material» deb talqin qilgan.

XULOSA

Ilm-fan bilan mafkurani ajratib turadigan chegarani aniqlash har doim ham oson emas. Etnomilliy konsepsiyalar ilmiy an‘ananing mavjud oqimida bo‘lsa-da, to‘g‘ridan-to‘g‘ri siyosiy harakatlarga yo‘naltirilmagan, ularning asosiy maqsadi voqelikni anglashdir. Shunday bo‘lsada, ular har doim ham mafkuradan butunlay holi emas, bu alohida tadqiqotchilarning fikrlarini ko‘rib chiqishda e’tiborni jalb qiladi [9].

Eng yangi tarix nuqtai nazariga ko‘ra sobiq ittifoq imperiyasi davrida ijtimoiy fanlar kommunistik partiya va uning mafkurasi ta’siridagi «hushyor nigoh» bosimi ostida faoliyat yuritgan. Xususan, ittifoq etnologiyasida «yangi tarixiy jamoa» ittifoq xalqi shakllanganligi e’tirof etilgan. Zamonaviy adabiyotda millatchilik fenomenini o‘rganishda mualliflar betaraflik pozitsiyasi va «obyektivlik»ka da’vo qilsalarda, ularning noxolis pozitsiyasi aslida ranglantirilgan pozitsiya ekanligi aniq seziladi. K.Verderi ta’kidlaganidek, «millat» tushunchasining noaniqligi uning ilmiy tahlilini murakkablashtiradi, lekin uni siyosiy amaliyotda qo‘llashni osonlashtiradi [10, – S.21]. Xulosa qilib aytganda, «millat» tushunchasi, ta’rifi va mohiyatini ilmiy asoslab berish uchun ilmiy tadqiqot ishlaridagi qiyinchiliklar mavjud mafkura bilan bog‘liq bo‘ladi va u siyosiy rango-rangliklar bilan hamohanglikda bo‘lishi talab etiladi.

Адабиётлар/ Литература/ References:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // «Халқ сўзи», 2018 йил 29 декабрь.
2. Этнос и политика: хрестоматия / авт. сост. А.А.Празаускас. – М.: Изд-во УРАО, 2000. – С.3.
3. Отамуратов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2013. – Б. 77.
4. Hall J. Nationalisms: Classified and Explained // Daedalus. Summer 1993. – P. 5.
5. Кун Т. Структура научных революций. – М., 1975. – С.11.

6. Смит Э. Национализм и модернизм: Критический обзор современных теорий наций и национализма. — М.: Праксис, 2004. — С. 389.
7. Кон Х. Идея национализма. Мифы и заблуждения в изучении империи и национализма. - М.: Новое издательство, журнал «Ab Imperio», 2010. — С. 27-61.
8. Deutsch K. Nationalism and Social Communication: An Inquiry into the Foundations of Nationality. Cambridge (Mass.), 1953// Коротева В.В. Теории национализма в зарубежных социальных науках. Российский государственный гуманитарный университет. — М.,1999.
9. Алимухамедова Н.Я. Этномиллий концепцияларнинг таҳлил этишда анъанавий ёндашувлар // “ЎзМУ хабарлари”. № 1/2/1 – Тошкент, 2022. – Б. 75-78.
10. Дробижеева Л.М., Аклаев А.Р., Коротева В.В., Солдатова Г.У. Демократизация и образы национализма в Российской Федерации 90-х годов. – С.21.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

3-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-3

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000